

## MAMLAKATIMIZDA SANITARIYA-EPIDEMOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TO'G'RISIDA

*Mamatkulov Ta'lat Toxirovich,  
Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti  
Epidemiologiya kafedراسi stajiyor-assistenti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada epidemiologiya, uning mazmun-mohiyati, o'rganilish asoslari haqida, Sharq va G'arb olimlarining nazariyalari haqida ma'lumotlar keltirib o'tildi. Shuningdek, mamlakatimizdagi epidemiologik vaziyat va unga qarshi qaratilgan davlat siyosati to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** epidemiologiya, Gippokrat, Ar-Roziy, Ibn Sino, "Tib qonunlari", sanitariya.

**Аннотация:** В данной статье представлены сведения о теориях восточных и западных ученых об эпидемиологии, ее содержании и основах ее изучения. Также была дана информация об эпидемиологической ситуации в нашей стране и направленной против нее государственной политике.

**Ключевые слова:** эпидемиология, Гиппократ, Ар-Рази, Ибн Сина, «Медицинские законы», санитария.

**Abstract:** In this article, information about the theories of Eastern and Western scientists about epidemiology, its content, and the basis of its study was presented. Also, information was given about the epidemiological situation in our country and the state policy directed against it.

**Key words:** epidemiology, Hippocrates, Ar-Razi, Ibn Sina, "Medical laws", sanitation.

**Epidemiologiya** — tibbiyotning bir sohasi. Infekcion kasalliklarni kelib chiqish sabablari, tarqalishini o'rganadi, shuningdek, ularga qarshi kurash hamda oldini olish choralarini ishlab chiqadi. Epidemiologiya biologiya, mikrobiologiya, virusologiy, genetika, biokimyoy, fizika va boshqalar fanlar bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

Umumiy epidemiologiya yuqumli kasalliklar tasnifining evolyutsion asoslari, epidemik jarayon, epidemiologiyaning kategoriya va qonuniyatlarini o'rganadi. Xususiy epidemiologiya har bir yuqumli kasallikning o'ziga xos tarixi, qo'zg'atuvchisi, epidemiologiyasi, infeksiya manbai, yuqish yo'llari va vositalari, unga qarshi kurash va oldini olish usullarini o'rganadi. Uning tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoda diniy va falsafiy masalalar bilan birga tibbiyotga, xususan, yuqumli kasalliklarning tarqalishiga va ularning oldini olishga oid fikrlar bitilgan. Ayrim kasalliklarning hayvonlardan yuqishi, shuningdek, bemor bilan muloqotda bo'lganda kasallik yuqishi mumkinligi va uning

qo'zg'atuvchisi organizmga turli yo'llar — og'iz, burun va jinsiy a'zolar orqali kirishi o'sha davridayoq ma'lum bo'lgan.

Yuqumli kasalliklarni ilmiy jihatdan asoslashga urinishlar **Gippokrat**, o'rta asrlarda **Roziy**, **Ibn Sino** va boshqalarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Abu Ali ibn Sino o'zining "**Tib qonunlari**" asarida kasalliklarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar, ularni qo'zg'atuvchi omillar, kasallik alomatlari va ularning oldini olish haqida fikrlar bildirgan. Unda bir qancha xavfli yuqumli kasalliklar (vabo, o'lat, chin chechak, sil va boshqalar)ning ko'zga ko'rinmas qo'zg'atuvchilari va ularning mexanizmi, shuningdek, yuqumli kasalliklarning vujudga kelishida ifloslangan suv, havo kabi tashqi omillar muhim rol o'ynashi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ar-Roziy chin chechak, ko'kyo'tal kasalliklarini ta'riflab bergan. U o'z asarlarida birinchilardan bo'lib chin chechak kasalligining oldini olish uchun sog'lom kishilarni bemorlarning chechak (pustula) pufakchasidan olingan suyuklik bilan emlash to'g'risida fikr yuritgan.

Mamlakatimizda epidemiologiyaning rivoji epidemiologiya, mikrobiologiya va yuqumli kasalliklar institutshshsh tashkil etilishi, L. M. Isayev, P.F.Borovskiy, T.X.Najmiddinov kabi yirik olimlarning O'zbekistonda bir qancha yuqumli kasalliklarga, jumladan, bezgak, rishta, leyshmanioz, ich terlamaga qarshi qurashishda erishgan muvaffaqiyatlari bilan bog'liq. Shuningdek, o'zbek olimlari A.Z.Zohidov, S.N.Bobojonov, I.Q.Musaboyev va boshqalar epidemiologiya sohasida olib borgan ishlari bilan sanitariya va epidemiologiya rivojiga salmoqli hissa qo'shdilar. Respublikada yuqumli kasalliklar epidemiologiyasini o'rganish va ularning oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish, yuqumli kasalliklarni kamaytirish masalalari ustida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga muvofiq, inson salomatligiga ta'sir etuvchi xavfli omillarni boshqarish, tizimli monitoringini olib borish va tahlil qilishning yangi shakl va usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligi sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va ular bilan hamkorlik qilish, oziq-ovqat xomashyosi va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish faoliyati ustidan belgilangan tartibda nazorat qilish; sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining tibbiy madaniyatini oshirish va tibbiy profilaktika bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularning amalga oshirilishini ta'minlash; davlat va idoraviy tibbiyot statistikasini yuritish, to'plash, tahlil qilishiga uslubiy rahbarlik qilish, aholi salomatligiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash maqsadida zarur tekshirishlar va so'rovlar o'tkazishga alohida e'tibor qaratildi.

Sanitariya-epidemiologiya xizmati va uning tizimidagi tashkilotlar, jumladan, karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi hamda tarqalishi sharoitida epidemiyalarga qarshi kurashish qoidalarini buzishga oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan tegishli tibbiy asoslar mavjud bo'lgan taqdirda karantinda saqlash yoki davolanish tarzidagi tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash huquqiga ega. Qaror bilan Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi.

Sanitariya-epidemiologiya xizmati aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va jamoat salomatligi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish uchun javobgar bo'lgan vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Sanitariya-epidemiologiya xizmati aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va jamoat salomatligi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish uchun javobgar bo'lgan vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanib, Sog'liqni saqlash vazirligi tarkibiga kiradi.

Qaror bilan quyidagilar tashkil qilindi:

Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzurida vujudga kelingan biologik xavfsizlik

Sanitariya-epidemiologiya xizmati markaziy apparati va uning hududiy bo'linmalarida tegishli Sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari tahlili va istiqbolni belgilash markazi va uning bo'linmalari.

Hozirgi vaqtda epidemik kasalliklarning yuzaga kelishi, tarqalishi va yo'qotilishini o'rganuvchi yangi bir yo'nalish — yuqumli bo'lmagan kasalliklar epidemiologiyasi yuzaga keldi. Uning asosiy vazifasi bunday kasalliklarning etiologiyasi va patogeneziga doir ma'lumotlarni tahlil qilish asosida ularga qarshi profilaktika usullarini ishlab chiqish hamda aholi orasida xavfli o'sma kasalliklari va boshqalar surunkali yuqumli bo'lmagan kasalliklardan yuzaga keluvchi o'lim hollarini kamaytirishdan iborat. Toshkent tibbiyot akademiyasida, shuningdek, O'zbekistondagi mavjud barcha tibbiyot intlarida, Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutida epidemiologiya kafedralari mavjud.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bugungi kunda sanitariya-epidemiologiya sohasini yanada rivojlantirish maqsadida juda ham ko'plab islohotlar izchilikda amalga oshirilmoqda. Chunki, sabablar ma'lum bo'lsa, ko'plab kasalliklarning oldini olish mumkin bo'ladi. Epidemiologiya usullari ko'plab sababchi omillarni aniqlashda juda

muhim bo'lib, ular o'z navbatida kasalliklar, shikastlanishlar va erta o'limning oldini olishga qaratilgan sog'liqni saqlash siyosatiga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Saydolim M., Tahirovich M. T. Problems in the Nutrition of Medical University Students //Eurasian Medical Research Periodical. – 2023. – T. 17. – С. 115-117.
2. Saidolim M., Toxirovich M. T. PREVENTION OF HIV INFECTION AMONG HEALTHCARE WORKERS //World Bulletin of Public Health. – 2023. – T. 19. – С. 189-193.
3. Saidolim M., Egamberdiyevich M. A., Toxiroyevich M. T. Epidemiological Assessment of OIH Infection Among the Samarkand Region's Leprous Population Groups //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2023. – T. 4. – №. 2. – С. 115-119.
4. Murodkosimov S. et al. PREVENTING HIV INFECTION IN PREGNANT WOMEN //World Bulletin of Public Health. – 2022. – T. 10. – С. 143-145.
5. Муродқосимов С., Маматқулов Т. Т., Нуриддинович Қ. Н. САМАРҚАНД ВИЛ ОЯТИДА СИЛ КАСАЛЛИГИ АНИҚЛАНГАН ҲОЛАТЛАР БУЙИЧА ЭПИДЕМИОЛОГИК БАХОЛАШ //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 172-177.
6. Hikmatovich I. N., Temirovich E. R., Toxirovich M. T. Effectiveness of Topical Therapy in the Treatment of Genital Herpes //Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 29-33.
7. Hikmatovich I. N., Temirovich E. R., Toxirovich M. T. Local Treatment of Patients with Genital Herpes //Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 19-23.
8. Hikmatovich I. N., Toxirovich M. T., Xolmatovich J. A. Effectiveness of Sevoran in the Treatment of Papulosis Dermatitis //Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 40-44.
9. Axmedova M. T., Mamatqulov T., Umarova S. R. Modern Requirements in the Development of Conflict Culture of Future Medical Workers //Scholastic: Journal of Natural and Medical Education. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 282-285.
10. Murodkosimov S. M., Mamatkulov T. T., Ismoilov O. I. PREVENTING HIV INFECTION AMONG HEALTH-CARE WORKERS //Frontline Medical Sciences and Pharmaceutical Journal. – 2022. – Т. 2. – №. 03. – С. 35-40.
11. Nuriddinovich K. N. et al. ON THE STATE OF THE PREPARATION OF OFFICERS OF THE MEDICAL SERVICE OF THE ARMY, EXPERIENCE AND RELEVANCE OF DEVELOPED COUNTRIES //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 12. – С. 1146-1149.
12. Hikmatovich I. N., Temirovich E. R., Egamberdiyevich M. A. Clinical Evaluation of the Efficacy of Acne Vulgaris Laser Therapy //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 667-669.

13. Hikmatovich I. N., Temirovich E. R., Egamberdiyevich M. A. Development of a Complex Method for the Treatment of Chronic Pyoderma //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 663-666.
14. Saidolim M., Ermanov R., Asamidin M. PREVENTION OF INFECTION OF THE POPULATION OF SAMARKAND REGION WITH HIV INFECTION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 1112-1116.
15. Nuriddinovich K. N. et al. ON THE STATE OF THE PREPARATION OF OFFICERS OF THE MEDICAL SERVICE OF THE STOCK, EXPERIENCE AND RELEVANCE OF DEVELOPED COUNTRIES //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 12. – С. 1146-1149.
16. Oslanov A. A. et al. HEPATITIS B ORTHOHEPADNAVIRUS AND CORONAVIRUS INTERFERENCE //World Bulletin of Public Health. – 2022. – Т. 9. – С. 171-173.
17. Kobilov N., Hasanov U. EPIDEMIOLOGICAL ANALYSIS OF VIRUS HEPATITIS A IN SAMARKAND REGION //Interpretation and researches. – 2023. – Т. 1. – №. 8.
18. Kabilov N., Hasanov U. PREVALENCE OF VIRUS HEPATITIS A DISEASE AND ITS EPIDEMIOLOGY CHARACTERISTICS //Interpretation and researches. – 2023. – Т. 1. – №. 8.
19. Kabilov N., Hasanov U., Khakimov A. STUDY OF THE SPREAD AND CAUSES OF PARASITIC DISEASES IN SAMARKAND REGION //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – Т. 1. – №. 26.
20. Қобилов Н. САМАРҚАНД ВИЛОЯТИДА ВИРУСЛИ ГЕПАТИТ А НИНГ ЭПИДЕМИОЛОГИК ТАҲЛИЛИ //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – Т. 1. – №. 20.
21. Eshnazarovich T. B., Khaknazarovich S. I., Usmanovna V. M. BASICS OF FUNCTIONAL NUTRITION IN DENTAL PRACTICE //JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE. – 2023. – Т. 8. – №. 2.
22. Eshnazarovich T. B., Usmonovna V. M. FUNDAMENTALS OF THE DEVELOPMENT OF FUNCTIONAL FOOD PRODUCTS FROM LOCAL RAW MATERIALS //Open Access Repository. – 2023. – Т. 9. – №. 6. – С. 244-249.
23. Usmonovna V. M., Qodirovich B. D. SCIENTIFIC ANALYSIS OF VIOLENT INFECTIOUS DISEASES AND THEIR CONTROL //EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE. – 2023. – Т. 3. – №. 9. – С. 149-153.

24. Tukhtarov B. E., Valiyeva M. U., Ch K. N. ESTIMATION OF THE IMPORTANCE OF BIOLOGICAL VALUE OF NUTRITION ALLOWANCES OF SPORTSMEN OF WEIGHTLIFTING IN THE CONDITIONS OF THE HOT CLIMATE //World Bulletin of Public Health. – 2023. – Т. 19. – С. 149-152.
25. Хидиров Н. Ч., Тухтаров Б. Э., Валиева М. У. ASSESSMENT OF THE AVERAGE DAILY DIETS OF PROFESSIONAL ATHLETES ON ACTUAL AND ALTERED DIETARY BACKGROUNDS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 4. – С. 433-441.
26. Hikmatovich I. N., Xolmatovich J. A., Temirovich E. R. Application of Topical Treatment with Pimicralimus for the Treatment of Papulosis Dermatitis //Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 24-28.
27. Hikmatovich I. N., Temirovich E. R., Raximjon o'g'li N. S. The Use of Advantan in the Local Treatment of Genital Herpes //Texas Journal of Medical Science. – 2022. – Т. 8. – С. 110-112.
28. Hikmatovich I. N., Temirovich E. R., Muradovich Y. M. O'SMIRLARDA YUZAKI PYODERMANI DAVOLASHDA TOPIKAL TERAPIYA //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 355-358.
29. Hikmatovich I. N., Temirovich E. R., Xolmatovich J. A. BOLALAR DERMATOZINI DAVOLASHDA MAHALLIY TERAPIYA SAMARALIGINI BAHOLASH //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 352-354.
30. Hikmatovich I. N., Temirovich E. R., Xolmatovich J. A. HERPIS VIRUSINI MAHALLIY DAVOLASH UCHUN VIFIRONNI QO'LLASH //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 349-351.
31. Azim, Baykulov, et al. "Analysis of the selection of the covering material for the treatment of thermal burn of the skin." *European Journal of Molecular & Clinical Medicine* 8.3 (2021): 1785-1808.
32. Мурадқосимов С. и др. Эпидемиологические ситуации оив инфекции среди мигрантов Самаркандской области //Журнал биомедицины и практики. – 2021. – Т. 1. – №. 3/2. – С. 207-211.
33. Islamov N. H. et al. Use of Eximer Laser in the Treatment of Vitiligo //Academicia Globe. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 87-92.
34. Muxammadiyevich N. A. Origin, Lifestyle, Development And Against Viruses And Bacteria That Endanger Our Life Struggle //Genius Repository. – 2023. – Т. 24. – С. 16-21.

35. Muhammediyevych N. A. et al. FUNDAMENTALS OF ENSURING HEALTH LEVEL AND LIFE ACTIVITY SAFETY OF YOUNG CHILDREN //JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 141-144.
36. Muhamadievich N. A., Kodirvich B. D. Patriotic Education as one of the Components Of National Security. Eurasian Scientific Herald 6, 88-90. – 2022.
37. Кодирович Б. Д. БАКТЕРИОЛОГИК ВОСИТАЛАР БИЛАН ЗАРАРЛАНГАН ЎЧОҚДА ЭПИДЕМИЯГА ҚАРШИ ЧОРА ТАДБИРЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ҲУҚУҚИЙ АСПЕКТЛАРИ //Биология ва тиббиёт муаммолари. – 2022. – Т. 3. – С. 217-220.
38. Кодирович Б. Д. Олий ва ўрта махсус таълим муассасаларида ҳарбий ватанпарварлик тарбиясини такоминлаштириш. Педагогика ва психологида иновациялар 5 (ISSN 2181-9513), 102-107. – 2020.